

### 2022- yil uchun Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,  
mlrd. so'm

**62 440,3**

YAHM o'sish  
sur'ati

**105,8 %**

YAHM deflyator  
indeksi

**111,6 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil uchun Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 62 440,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 5,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hisyasi 7,0 % ga yetdi.



**2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM  
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>52 893,6</b>	<b>62 440,3</b>	<b>105,8</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	51 784,4	60 866,2	105,7
mahsulotlarga sof soliqlar	1 109,2	1 574,1	109,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>51 784,4</b>	<b>60 866,2</b>	<b>105,7</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>22 672,3</b>	<b>24 652,2</b>	<b>103,6</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>10 523,1</b>	<b>13 474,5</b>	<b>109,3</b>
sanoat	7 359,6	9 731,6	109,0
qurilish	3 163,5	3 742,9	110,1
<b>xizmatlar</b>	<b>18 589,0</b>	<b>22 739,5</b>	<b>106,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 350,6	4 190,8	111,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 299,6	3 876,6	110,9
boshqa xizmat tarmoqlari	11 938,8	14 672,1	103,7



## YALPI HUDUDIIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 323,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan  
YAHMning o'sish sur'atlari**  
*(o'tgan yilning mos davriga  
nisbatan % hisobida)*



**Aholi jon boshiga hisoblangan  
YAHM hajmi**  
*(ming so'mda)*



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	97,5
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	2,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>43,8</b>	<b>40,5</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>20,3</b>	<b>22,1</b>
sanoat	14,2	16,0
qurilish	6,1	6,1
<b>xizmatlar</b>	<b>35,9</b>	<b>37,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,5	6,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,4	6,4
boshqa xizmat tarmoqlari	23,0	24,1

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 43,8%

Sanoat 14,2%

Qurilish 6,1%

Xizmatlar 35,9%

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 40,5%

Sanoat 16,0%

Qurilish 6,1%

Xizmatlar 37,4%

● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2022- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 40,5 % ni, sanoat tarmog'i 16,0 % ni, qurilish 6,1 % ni va xizmatlar sohasi 37,4 % ni tashkil qildi.



2022- yil uchun YAHM o'sishida  
tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

**YAHM**



**5,8**

**Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi**




**1,5**

**Sanoat**



**1,3**

**Qurilish**



**0,6**

**Xizmatlar**



**2,2**

**Mahsulotlarga  
sof soliqlar**



**0,2**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,5 f.p. (2021- yilda – 1,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2021- yilda – 1,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2021- yilda – 1,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,2 f.p. (2021- yilda – 4,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2021- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.



## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2022- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 40,5 %), sanoatda – 109,0 % (16,0 %), qurilishda – 110,1 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 106,3 % ni (37,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,0 % (6,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,9 % (6,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % dan (24,1 %) iborat bo'ldi.




■ 2021- yil  
■ 2022- yil

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




### YAHM



### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




### Sanoat




2022- yilning YAHM deflyatori indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 111,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 121,3 % va xizmatlar sohasida – 115,1 % qayd etildi.



### Qurilish



### Xizmatlar





## Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



2022- yilda kichik tadbirkorlik 43 428,5 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021- yilda – 38 368,8 mlrd. so‘m), YAHMdagi ulushi 71,4 %ni tashkil qildi (2021- yilda – 74,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

